Bundan tashqari, mazkur qonun bilan ilgari inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish bilan bog‘liq holatlar og‘irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan ayrim jinoyat tarkiblarining mazmuni ham qayta ko‘rib chiqildi. Jumladan, JKning 97-moddasi 2-qismi “n” bandi “inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida” deb, 104-moddasi 2-qismi “i” bandi hamda 135-moddasi 2-qismi “i” bandi esa “inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida” deb tahrir qilinib, ularning mazmuni aniqlashtirildi va kengaytirildi. Shu bilan birga, qo‘shimcha ravishda aynan shu mazmundagi og‘irlashtiruvchi holat JKning 137-moddasi (odam o‘g‘irlash) 3-qismi “v” bandiga ham kiritildi. Bu orqali qonun chiqaruvchi inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadi turli jinoyatlar doirasida namoyon bo‘lishi mumkinligini e’tirof etib, mazkur holat bir nechta jinoyat tarkiblarida alohida kvalifikatsiya belgisi sifatida mustahkamladi.

Fikrimizcha, kelgusida inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini noqonuniy olish bilan bog‘liq holatlarni boshqa jinoyat tarkiblarida ham og‘irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutish masalasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu esa mazkur qilmishning yuqori ijtimoiy xavfliligini inobatga olgan holda jinoiy-huquqiy muhofazani kuchaytirish, shuningdek, inson a’zolari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda mazkur turdagi jinoyatlarni tergov va kvalifikatsiya qilish jarayonida ayrim huquqiy va protsessual muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli qonunni qo‘llash amaliyotini bir xil va to‘g‘ri yo‘naltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi tomonidan ushbu masalalar yuzasidan tegishli tushuntirishlar berilgan. Mazkur tushuntirishlar sud-tergov amaliyotida qonun normalarini to‘g‘ri talqin qilish va bir xil qo‘llanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respub-

likasi Oliy Sudi Plenumining "Qasddan odam oʻldirishga oid ishlar boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida"gi 2004-yil 24-sentyabrdagi 13-sonli qarorining (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2004) 18-bandiga muvofiq, qasddan odam oʻldirish jinoyatini JK 97-moddasi ikkinchi qismining "n" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdorda inson aʼzolari va (yoki) toʻqimalarini olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadiga nisbatan toʻgʻri qasd mavjudligi aniqlanishi lozim. Shu bilan birga, mazkur maqsad jinoyatning subyektiv belgisi sifatida eʼtirof etilsa-da, aybdor shaxsning ushbu maqsadga amalda erishgan boʻlishi shart emasligi alohida taʼkidlangan.

Fikrimizcha, mazkur tushuntirish jinoyat huquqida maqsad (maqsadli qasd) jinoyat tarkibining muhim subyektiv belgilaridan biri ekanini koʻrsatadi. Yaʼni agar aybdor shaxs odam oʻldirish harakatini aynan inson aʼzolari va (yoki) toʻqimalarini olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida sodir etgan boʻlsa, bunday holat jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi kvalifikatsiya belgisi sifatida baholanadi. Shu bilan birga, jinoyat huquqiy nuqtayi nazardan mazkur tarkibning tugallangan deb topilishi uchun aybdor shaxsning koʻzlangan maqsadga amalda erishgan boʻlishi talab etilmaydi, chunki jinoyat kvalifikatsiyasi uning obyektiv natijasiga emas, balki sodir etilgan harakatning maqsadga yoʻnaltirilganligiga bogʻliq hisoblanadi. Bunday yondashuv jinoyatning subyektiv tomonini toʻgʻri aniqlash, aybdor shaxsning niyati va maqsadini baholash hamda qonun normalarini bir xil qoʻllashni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida"gi 2007-yil 27-yundagi 6-sonli qarori (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2007) 15-bandida sudlarga jabrlanuvchiga uning organlari yoki toʻqimalarini qonunga xilof ravishda olish yoki uni bunga majburlash jarayonida yetkazilgan ogʻir tan jarohatlari JK 104-moddasi ikkinchi qismining "i" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi tushuntirilgan. Bunda aybdor shaxs tomonidan inson aʼzosi yoki toʻqimasi amalda olingan boʻlishi shart emas, balki uni olish maqsadining mavjudligi aniqlanishining oʻzi yetarli hisoblanadi. Bu holat jinoyat tarkibida maqsad belgisi mustaqil kvalifikatsiya ahamiyatiga ega ekanini koʻrsatadi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi "Odam savdosiga oid ishlar boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida"gi 12-sonli qarorida (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2009) inson aʼzolari va (yoki) toʻqimalarini olish maqsadida odam savdosini sodir etish holatlari boʻyicha bevosita alohida tushuntirish berilmagan boʻlsa-da, nazarimizda, ushbu masala yuqoridagi Plenum qarorlarida bayon etilgan huquqiy yondashuvlarga tayangan holda talqin qilinishi mumkin. Yaʼni aybdor shaxs tomonidan inson aʼzolari yoki toʻqimalarini amalda olishga erishilganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, jinoyatning aynan shu maqsadga yoʻnaltirilganligi, yaʼni aybdorning subyektiv niyati va maqsadi aniqlanishi asosiy mezon hisoblanadi.

Shu tariqa, ushbu Plenum qarorlari jinoyat huquqiy kvalifikatsiyani bir xil qoʻllashga, aybdor shaxsning niyati va maqsadini aniq belgilashga hamda inson aʼzolari bilan bogʻliq jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda inson aʼzolari va toʻqimalarini olishni jinoyat tarkibining ogʻirlashtiruvchi holati sifatida baholash masalasi boʻyicha turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, muallif V.A. Smirnovning (2005, pp. 68–70) taʼkidlashicha, donordan organ yoki toʻqimani olish faqat uning ixtiyoriy roziligi asosida amalga oshirilishi mumkin, aks holda, bunday harakat inson tanasining daxlsizligiga tajovuz sifatida baholanadi. U

sogʻliqqa zarar yetkazishni inson tanasining anatomik yaxlitligi yoki organizmning normal faoliyati buzilishiga olib keladigan aybli harakat sifatida taʼriflaydi. Muallifga koʻra, inson aʼzolari yoki toʻqimalarini olish maqsadida sodir etiladigan badanga ogʻir shikast yetkazish jinoyatlari turli shakllarda namoyon boʻlishi, jumladan, organ yoki toʻqimani toʻgʻridan toʻgʻri ajratib olish, jabrlanuvchining qarshiligini yengish uchun ogʻir tan jarohati yetkazish yoki homiladorlikni sunʼiy ravishda toʻxtatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda ularni kvalifikatsiya qilishda organ yoki toʻqimaning amalda olinganligi emas, balki aybdor shaxsda ulardan foydalanishga qaratilgan maxsus maqsadning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois bunday qilmishlar jinoyat huquqida yuqori ijtimoiy xavfli jinoyatlar qatoriga kiritiladi.

Shu oʻrinda S.S. Tixonovaning quyidagi fikrlarini qoʻllab-quvvatlash mumkin, yaʼni “qorin yoki plevra boʻshligʻiga xirurgik aralashuv orqali kirish, shuningdek, yirik qon tomirlari, umurtqa pogʻonasi, bosh suyagi va boshqa hayotiy muhim tuzilmalarning yaxlitligi buzilishi holatining oʻziyoq muayyan aʼzo yoki toʻqimani olish jarayoni tugallangan-tugallanmaganidan qatʼi nazar, amalga oshirilgan paytdayoq hayot uchun xavf tugʻdirganligi sababli inson sogʻligʻiga ogʻir zarar yetkazish sifatida tugallangan jinoyat deb kvalifikatsiya qilinishi lozim” (Tikhonova, 2002, p. 321).

MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligining qiyosiy tahlili shuni koʻrsatadiki, inson aʼzolari va toʻqimalarini olish bilan bogʻliq qilmishlarning ogʻirlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi davlatlar oʻrtasida turlicha ifodalangan. Xususan, Qozogʻiston (Republic of Kazakhstan, 2014), Qirgʻiziston (Kyrgyz Republic, 2021), Tojikiston (Republic of Tajikistan, 1998), Belarus (Republic of Belarus, 1999) kabi mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida Oʻzbekiston qonunchiligiga oʻxshash tarzda qasddan odam oʻldirish, badanga ogʻir shikast yetkazish, odam savdosi va odam oʻgʻirlash jinoyatlari tarkibida inson aʼzolari hamda toʻqimalarini olish maqsadi ogʻirlashtiruvchi belgi sifatida nazarda tutilgan boʻlsa, Ukraina (Ukraine, 2001) jinoyat qonunchiligida esa bunday belgi qasddan odam oʻldirish va badanga ogʻir shikast yetkazish jinoyatlarida nazarda tutilmagan boʻlib, u faqat Ukraina Jinoyat kodeksining 149-moddasida belgilangan odam savdosi jinoyatining ogʻirlashtiruvchi holatlaridan biri sifatida mustahkamlangan. Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligida esa mazkur holat faqat qasddan odam oʻldirish, badanga ogʻir shikast yetkazish va odam savdosi bilan bogʻliq jinoyatlarda ogʻirlashtiruvchi belgi sifatida nazarda tutilgan (Russian Federation, 1996). Shu munosabat bilan, D.D. Babichning (2012, pp. 135–138) Belarus jinoyat qonunchiligida transplantatsiya sohasidagi jinoyatlar tizimi Rossiya va Ukraina qonunchiligiga nisbatan toʻlaroq huquqiy tartibga solingani haqidagi fikrlarini asosli deb hisoblash mumkin.

Shuningdek, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida inson aʼzolari va toʻqimalarini olish yoki ulardan foydalanish maqsadi nafaqat ogʻir jinoyatlar tarkibida, balki shaxsning sogʻligʻiga qarshi qaratilgan boshqa turdagi jinoyatlarda ham kvalifikatsiya belgisi sifatida nazarda tutilgan. Xususan, Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining (Republic of Azerbaijan, 1999) 127-moddasida belgilangan sogʻliqqa ogʻir boʻlmagan tan jarohati yetkazish jinoyatining kvalifikatsiyalangan tarkiblaridan biri sifatida inson aʼzolari va (yoki) toʻqimalaridan foydalanish maqsadida sodir etilgan harakatlar alohida koʻrsatib oʻtilgan. Bunday yondashuv qonun chiqaruvchining inson tanasi daxlsizligini keng qamrovli tarzda muhofaza qilishga qaratilganini, shuningdek, inson aʼzolari va toʻqimalarini noqonuniy muomalaga kiritish bilan bogʻliq har qanday tajovuzni jinoyat-huquqiy jihatdan qatʼiy baholash zaruratini eʼtirof etganini koʻrsatadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur norma inson aʼzolari va toʻqimalarini olish yoki ulardan foydalanish

maqsadi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi omil sifatida tan olinishini namoyon etadi hamda ushbu masalada milliy jinoyat qonunchiligini takomillashtirish uchun muayyan qiyosiy-huquqiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatini tahlil qilishda retsipiyent, ya'ni transplantatsiya natijasida inson a'zosi yoki to'qimasi ko'chirib o'tkaziladigan shaxsning jinoiy javobgarligi masalasi alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda bunday holatlarda jinoyatni kvalifikatsiya qilishning bir nechta ehtimoliy variantlari keltiriladi. Xususan, agar retsipiyentning o'zi qotillikning bevosita ijrochisi bo'lsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi "n" bandida nazarda tutilgan qasddan odam o'ldirish jinoyati sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Agar retsipiyent mazkur jinoyatning ijrochisi bo'lmasa va transplantatsiya amalga oshirilganidan keyingina a'zo yoki to'qima aynan shu maqsadda o'ldirilgan shaxsdan olinganini bilsa, bunday holatda uning harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Biroq agar retsipiyent qotillikning bevosita ijrochisi yoki tashkilotchisi bo'lmasa-da, jinoyat sodir etilishidan oldin transplantatsiyaga oldindan rozilik bildirgan va zarur a'zo yoki to'qima uchun haq to'lashni va'da qilgan bo'lsa, uning harakatlari mazkur jinoyatni sodir etishga yordam berish (jinoyatga ko'maklashish) sifatida baholanadi va tegishli ravishda JK 97-moddasi 2-qismi "n" bandiga nisbatan jinoyatga sheriklik qoidalari asosida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ayrim olimlar qonuniy asoslar mavjud bo'lmagan holda transplantatsiyani amalga oshirgan shifokorni, mohiyatan, donorning hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatda ishtirok etgan shaxs, xususan, yordamchi (*пособник*) sifatida baholash mumkinligini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, agar shifokor jabrlanuvchining a'zolari yoki to'qimalaridan foydalanish maqsadida sodir etiladigan qotillik amalga oshirilishidan oldin, ya'ni oldindan, ularni transplantatsiya qilishga rozilik bildirgan yoki bunday amalni bajarishga va'da bergan bo'lsa, u mazkur jinoyatda yordamchi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Biroq agar shifokor a'zolar yoki to'qimalar noqonuniy yo'l bilan olinganligi haqida donor o'ldirilganidan keyingina xabardor qilingan bo'lsa, bu holatda jinoyatda ishtirokchilik haqida gap bo'lishi mumkin emas, chunki jinoyat allaqachon tugallangan hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda zarurat tug'ilganda shifokorning harakatlari jinoyatga daxldorlik – ya'ni jinoyatni yashirish sifatida baholanishi va Jinoyat kodeksining 241-moddasi 2-qismiga muvofiq, oldindan va'da qilinmagan holda o'ta og'ir jinoyatni yashirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda mazkur masala yuzasidan shunga o'xshash xulosalarni D.Y. Krayev (Kraev, 2024, pp. 63–72) va N.A. Babiy (2014, p. 288)lar ilgari surganlar.

Inson a'zolari yoki to'qimalarini keyinchalik transplantatsiya qilish maqsadida qotillik sodir etish, odatda bir qator tashkiliy va amaliy qiyinchiliklar bilan bog'liq. Avvalo, bunday jinoyatni tibbiy sohada maxsus bilimga ega bo'lgan shaxsning ishtirokisiz amalga oshirish deyarli mumkin emas. Bunday shaxs jinoyatda ijrochi, tashkilotchi, yordamchi yoki dalolatchi sifatida ishtirok etishi mumkin, biroq ayrim hollarda u jinoiy niyatdan bexabar holda jalb etilgan bo'lib, aybdorlik belgilari mavjud bo'lmagan taqdirda javobgarlikka tortilmasligi mumkin. Shu bilan birga, transplantatsiya murakkab tibbiy jarayon bo'lgani sababli, uni yakka shaxs tomonidan amalga oshirish amalda mumkin emas, chunki a'zolar yoki to'qimalarni olish jarayoni odatda bir nechta tibbiyot xodimlarining ishtirokini talab qiladi. Bundan tashqari, inson a'zolari yoki to'qimalarini boshqa davlatlarga noqonuniy ravishda olib chiqish ham, qoida tariqasida, oldindan tashkil etilgan jinoiy

mexanizm mavjud boʻlishini taqozo etadi. Shu sababli Oʻzbekiston sharoitida aʼzoni tibbiyot muassasasidan tashqarida, yaʼni uy sharoitida olish amalda deyarli imkonsiz hisoblanadi, uni koʻchirib oʻtkazish esa bundan ham mushkuldir.

Biroq mazkur turdagi qotillik jinoyatining subyekti faqat tibbiyot xodimlari bilan cheklanib qolmaydi, balki boshqa shaxslar ham uni sodir etishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda bunga misol sifatida shunday holat keltiriladiki, unda transplantatsiyadan manfaatdor shaxs qotillik qurbonini yoʻl-transport hodisasi jabrlanuvchisi sifatida koʻrsatish orqali jinoyatni yashirishga urinishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi “n” bandida nazarda tutilgan qotillik deganda boshqa insonga uning aʼzolari va (yoki) toʻqimalaridan har qanday tarzda foydalanish maqsadida toʻgʻridan toʻgʻri qasd bilan oʻlim yetkazish tushunilishi lozim. Shuningdek, agar jabrlanuvchining aʼzolari yoki toʻqimalarini olish maqsadida qotillik gʻarazli niyatlarda, masalan, keyinchalik biologik materialni sotish maqsadida sodir etilgan boʻlsa, fikrimizcha, jinoyatning subyektiv tomonini toʻliq aks ettirish uchun aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi “i” va “n” bandlari boʻyicha kvalifikatsiya qilinishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, mazkur ogʻirlashtiruvchi holat belgisi boshqa ogʻirlashtiruvchi holatlar bilan bir vaqtda ham namoyon boʻlishi mumkin. Bunday hollarda aybdorning harakatlari jinoyatning barcha tegishli kvalifikatsiya belgilari inobatga olingan holda huquqiy baholanishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi 2-qismi “i” bandida odam savdosining jabrlanuvchidan inson aʼzolari yoki toʻqimalarini olish maqsadida sodir etilishi alohida kvalifikatsiya belgisi sifatida nazarda tutilgan. Mazkur belgi JK 97-moddasi 2-qismi “n” bandida belgilangan holatdan mazmunan farq qiladi, chunki 135-moddada jinoyatning maqsadi faqat jabrlanuvchidan aʼzolar yoki toʻqimalarni olish bilan cheklanadi. Agar odam savdosi jarayonida jabrlanuvchi uning aʼzolari yoki toʻqimalaridan foydalanish maqsadida qasddan hayotdan mahrum etilsa, bunday qilmish jinoyatlar majmui sifatida baholanib, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi “n” bandi va 135-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Fikrimizcha, yuqoridagilardan kelib chiqib, inson aʼzolari va (yoki) toʻqimalarini olish maqsadi bilan bogʻliq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalasi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarorlarida qoʻshimcha huquqiy tushuntirishlar berilishi maqsadga muvofiq. Bunday tushuntirishlar sud amaliyotida qonun normalarini bir xil va izchil qoʻllashni taʼminlash, shuningdek, mazkur toifadagi jinoyat ishlarini koʻrib chiqish amaliyotini takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson aʼzolari va toʻqimalarini olish yoki ulardan foydalanish maqsadiga erishish ayrim hollarda boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etishga ham olib kelishi mumkin. Bu borada Y.A. Chernishevaning fikrlarini (Chernysheva, 2013, pp. 107–109), qoʻllab-quvvatlagan holda bunday qilmishlar qatoriga oʻz joniga qasd qilishga undash, qasddan badanga oʻrtacha ogʻir shikast yetkazish, zoʻrlik ishlatib gʻayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish kabi jinoyatlarni kiritishimiz mumkin, deb hisoblaymiz.

Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-, 104-, 135- va 137-moddalarida inson aʼzolari va (yoki) toʻqimalarini olish maqsadida sodir etilgan qilmishlarning ogʻirlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi mazkur jinoyatlarning yuqori ijtimoiy xavfliligini inobatga olgan holda jinoyat-huquqiy muhofazani kuchaytirishga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Chunki inson aʼzolari va toʻqimalarini noqonuniy olish bilan bogʻliq harakatlar koʻp hollarda

odam savdosi, odam o'g'irlash, zo'ravonlik va shaxsning hayoti hamda sog'lig'iga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan mazkur maqsadning jinoyatning kvalifikatsiya belgisi sifatida belgilanishi uning ijtimoiy xavflilik darajasini to'g'ri baholashga xizmat qiladi.

**Xulosa**

Fikrimizcha, inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini olish maqsadining bunday jinoyat tarkiblarida og'irlashtiruvchi holat sifatida mustahkamlanganligi ijobiy huquqiy yechim hisoblansa-da, ushbu maqsad ayrim holatlarda shaxsning hayoti, sog'lig'i va ozodligiga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar doirasida ham namoyon bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, o'zini o'zi o'ldirishga undash, qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish va insonni g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jinoyatlarda ham inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini olish maqsadini alohida og'irlashtiruvchi belgi sifatida kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu esa mazkur jinoyatlarning haqiqiy ijtimoiy xavflilik darajasini to'laroq aks ettirishga, inson tanasi daxlsizligini samarali muhofaza qilishga hamda inson a'zolari bilan bog'liq noqonuniy faoliyatning oldini olishga xizmat qiladi.

Kelgusida inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini olish maqsadini boshqa jinoyat tarkiblarida ham og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutish masalasini ko'rib chiqish milliy jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirishga, inson tanasi daxlsizligini ta'minlashga hamda mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, inson a'zolari va to'qimalari bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yagona yondashuvni shakllantirish uchun Oliy Sud Plenumi tomonidan qo'shimcha tushuntirishlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

## REFERENCES

1. Babich, D. D. (2012). Sistema prestupleniy v sfere transplantatsii v ugolovnom zakonodatelstve Ukrainy i Respubliki Belarus [The system of crimes in the sphere of transplantation in the criminal legislation of Ukraine and the Republic of Belarus]. *Legal Science and Practice: Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, (20), 135–138. https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-prestupleniy-v-sfere-transplantatsii-v-ugolovnom-zakonodatelstve-ukrainy-i-respubliki-belarus

2. Babiy, N. A. (2014). *Kvalifikatsiya ubiystv pri otyagchayushchikh obstoyatelstvakh [Qualification of murders under aggravating circumstances].* INFRA-M.

3. Chernysheva, Y. A. (2013). Perspektivy sovershenstvovaniya ugolovnogo zakona v chasti reglamentatsii otvetstvennosti za prestupleniya, svyazannye s nezakonnym izyatiem organov i tkaney cheloveka, v Rossiyskoy Federatsii [Prospects for improving the criminal law in terms of regulating responsibility for crimes related to the illegal removal of human organs and tissues in the Russian Federation]. *Society and Law*, (2), 107–109. https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-sovershenstvovaniya-ugolovnogo-zakona-v-chasti-reglamentatsii-otvetstvennosti-za-prestupleniya-svyazannye-s-nezakonnym

4. Kraev, D. Y. (2024). Kvalifikatsiya ubiystva v tselyakh ispolzovaniya organov ili tkaney poterpevshego [Qualification of murder for the purpose of using the organs

or tissues of the victim]. *Criminologist*, (2), 63–72. https://cyberleninka.ru/article/n/kvalifikatsiya-ubiystva-v-tselyah-ispolzovaniya-organov-ili-tkaney-poterpevshego

5. Kyrgyz Republic. (2021, October 28). *Criminal Code.* Centralized Database of Legal Information of the Kyrgyz Republic. https://cbd.minjust.gov.kg/3-38/edition/2087/ru

6. Republic of Azerbaijan. (1999, December 30). *Criminal Code of the Republic of Azerbaijan.* PRG Legal Database. https://prg.kz/Document/?doc_id=30420353

7. Republic of Belarus. (1999, July 9). *Criminal Code of the Republic of Belarus*. Pravo.by National Legal Internet Portal. https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275

8. Republic of Kazakhstan. (2014, July 3). *Criminal Code*. Adilet Legal Information System of Republican Center of Legal Information. https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226

9. Republic of Tajikistan. (1998, May 21). *Criminal Code.* Continent-Online Legal Database. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325

10. Republic of Uzbekistan. (1994, September 22). *Criminal Code.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-111453

11. Republic of Uzbekistan. (2022, June 23). *On amendments and additions to certain legislative acts of the Republic of Uzbekistan in connection with the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On transplantation of human organs and tissues"*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/6079256

12. Russian Federation. (1996). *Criminal Code of the Russian Federation of June 13, 1996 No. 63-FZ (as amended as of April 9, 2026).* https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397073#pos=1353;-10

13. Smirnov, V. A. (2005). Prichinenie vreda zdorovyu razlichnoy stepeni tyazhesti v tselyakh ispolzovaniya organov i tkaney poterpevshego [Infliction of harm to health of varying severity for the purpose of using the organs and tissues of the victim]. *Siberian Legal Bulletin*, (4), 68–70. https://cyberleninka.ru/article/n/prichinenie-vreda-zdorovyu-razlichnoy-stepeni-tyazhesti-v-tselyah-ispolzovaniya-organov-i-tkaney-poterpevshego

14. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2004, September 24). *On judicial practice in cases of intentional homicide.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/1455961

15. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2007, June 27). *On judicial practice in cases of intentional infliction of bodily harm.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/1592419

16. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2009, November 24). *On judicial practice in cases of human trafficking.* Lex.uz. https://lex.uz/docs/1616053

17. Tikhonova, S. S. (2002). *Prizhiznennoe i posmertnoe donorstvo v Rossiyskoy Federatsii: voprosy ugolovno-pravovogo regulirovaniya [Life and post-mortem donation in the Russian Federation: Issues of criminal law regulation].* Legal Center Press.

18. Ukraine. (2001, April 5). *Criminal Code of Ukraine.* Continent-Online Legal Database. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30418109

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 2-SON

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.2.